Qabul qilindi: 19-oktabr 2026-yil • Ma’qullandi: 26-oktabr 2026-yil • Nashr qilindi: 05-noyabr 2026-yil

O‘ZBEKISTONDA UMUMTA’LIMNI MOLIYALASHTIRISHGA YANGI MEXANIZM JORIY ETISH MASALALARI

Mamatov Nodirbek Saydivoqosovich

Qo‘qon universiteti Andijon filiali, Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti dekan muovini

E-mail: nodirxuja77@gmail.com

Annotatsiya. Tezisda 2021–2026-yillardagi moliyalashtirish dinamikasi xalqaro ko‘rsatkichlar bilan qiyoslanib, hajmdan ko‘ra institutsional sifat muhimligi ko‘rsatilgan hamda uch pog‘onali gibrid model taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: byudjet xarajatlari, normativ moliyalashtirish, gibrid model, DXH; бюджетные расходы, гибридная модель; budget expenditure, hybrid model, PPP.

Аннотация. Динамика финансирования в 2021–2026 гг. сопоставлена с международными показателями; показано, что институциональное качество важнее объёма; предложена трёхуровневая гибридная модель.

Abstract. Funding dynamics in 2021–2026 are compared with international indicators; institutional quality is shown to matter more than volume; a three-tier hybrid model is proposed.

KIRISH

Umumta’limni moliyalashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi bo‘lib, Konstitutsiyaning 50-moddasi bepul umumiy o‘rta ta’limni kafolatlaydi [1]. Tezisning maqsadi amaldagi mexanizmni baholash va islohot yo‘nalishlarini asoslashdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Xalqaro amaliyotda moliyalashtirishning normativ, talabga asoslangan va davlat-xususiy sherikchilik modellari ajratiladi, to‘rtinchi – aralash xalqaro-davlat – yo‘nalish shakllanmoqda [2]. Statistik, qiyosiy-tanqidiy tahlil va SWOT usullari qo‘llanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Umumta’limga davlat byudjeti mablag‘lari 2021–2026-yillarda 22 179,2 mlrd so‘mdan 63 691,6 mlrd so‘mgacha o‘sdi. Xarajatlar tarkibida ish haqi miqdori 2026-yilda 82,7 foizga to‘g‘ri keladi.

Normativ moliyalashtirishga o‘tish 2022-yildan boshlangan, biroq smeta usuli bilan parallel ishlab kelmoqda [3]. Xalqaro qiyosda ta’limga davlat xarajatlarining YaIMdagi ulushi 5,47 foiz bo‘lib, Osiyo taraqqiyot banki mamlakatlari o‘rtachasi 4,8 foiz miqdordan kam emasligini ko‘rish mumkin. Shunday bo‘lsada, PISA natijasi 382 ball va maktab avtonomiyasi indeksi esa 0,3 darajadaligi sohadagi kamchiliklar mavjudligini aks ettirmoqda.



Bundan ko‘rish mumkinki, mablag‘ miqdori hal qiluvchi omil hajm emas, mexanizmning takomillashtirish muhimroqdir. Xorijiy modellarni ko‘chirish ma’muriy salohiyat, aholi zichligi (Andijon viloyati – 821,4, Qozog‘iston – 7 kishi/km² dan past) va mahalliy byudjetlar mustaqilligi bo‘yicha imkoniyatlar cheklanganligi ham mavjud muammo hisoblanadi.

Ushbu sabablardan kelib chiqqan holda Qozog‘iston tajribasiga tayangan, Polsha subvensiya mexanizmi va xalqaro hamkorlik bilan boyitilgan uch pog‘onali gibrid modelni, ya’ni normativ, natijaviy va hududiy ulushlarni 70/20/10 dan 2030-yilga 60/30/10 ga bosqichma-bosqich o‘zgartirish taklif etiladi. Bugungi kundagi moliyalashtirish pedagoglarni ish bilan ta’minlash, o‘quvchilarni ushlab turishga qaratilgan moliyalshtirishdek namoyon bo‘lmoqda. Umumta’limni moliyalashtirish albatta normativlikga, normativlikga qo‘shimcha natijaviylikga hamda huquqiylikka asoslanishi kelajakda avvalo byudjet mablag‘larini maqsadli va samaradorligini ta’minlashiga zamin yaratadi. Kelajakda davlat umumta’lim maktablari va nodalat umumta’lim maktablari o‘rtasidagi tafovutni davlat umumta’lim maktablari foydasiga o‘zgartirish hamda yoshlarini dunyo yoshlariga raqobatchi bo‘luvchi avlod sifatida tayyorlay oladi.

XULOSA

Bizning fikrimizga ko‘ra, O‘zbekistonda islohot markazi byudjet hajmini oshirishdan

moliyalashtirish mexanizmining ichki tuzilishini – shaffoflik, mustaqillik va natijaviylikni – takomillashtirishga ko‘chishi lozim deb hisoblaymiz. gibrid model o‘qituvchilarni natijalariga bog‘liq rag‘batlantirish va DXShni kengaytirish buning asosiy vositalaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yil 30-aprel umumxalq referendumida qabul qilingan tahrir), 50-modda. Lex.uz.

2. OECD. School Funding Formulas: Review of Main Characteristics and Impacts // OECD Education Working Papers, No. 74.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori bilan tasdiqlangan «Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida»gi Nizom. Lex.uz.

